

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

JAVLON JOVLIYEVNING “QO‘RQMA” ROMANIDAGI BA’ZI MA’NODOSH SO‘ZLARNING XUSUSIYATLARI

Abduxalimov Sherzod Abduvali o‘g‘li

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 4-bosqich talabasi

E-mail: sherzodabduxalimov2000@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu maqolada yangi davr namoyondasi Javlon Jovliyevning “Qo‘rqma” romani tarkibida qo‘llanilgan ma’nodosh so‘zlarning matndagi xususiyatlari o‘rganiladi. Ularning asar mazmunida ifodalagan ma’nolariga birma-bir to‘xtalinadi.

Kalit so‘zlar: “Qo‘rqma” romani, sinonimiya hodisasi, sinonim juftlik, lingvistik vosita.

Tilning fikr almashinuv birligi hisoblangan matn mazmunan va grammatik jihatdan o‘zaro birikkan til birliklaridan tashkil topadi. Shunga ko‘ra matn tarkibidagi har bir unsurda – u xoh so‘z bo‘lsin, xoh qo‘shimcha – o‘ziga xos ma’no anglatish doirasi, vazifasi, o‘rni va o‘zaro bog‘lanish qonuniyatlari mavjud. Fikr almashinuv nutq jarayonida yuzaga keladi, bevosita (o‘zaro yuzma-yuz suhbat) yoki bilvosita (yozishmalar asosida) amalga oshishiga ko‘ra esa matnlar og‘zaki va yozma nutq shakllariga bo‘linadi. Nutq jarayonida esa hamisha ikki tomon – og‘zaki nutqda so‘zlovchi va tinglovchi; yozma nutqda esa yozuvchi va o‘quvchi ishtirok etadi. Matn qaysi shaklda tuzilishidan qat’i nazar so‘zlovchi (yozuvchi) o‘z fikrini tinglovchi (o‘quvchi)ga yetkazishda muayyan uslubga xos ravishda tanlab olingan til birliklaridan foydalanadi.

Badiiy uslubga xos matnlarda yozuvchi mahoratini belgilab beruvchi eng muhim omillardan biri uning til unsurlaridan qanchalik unumli foydalana olishi va o‘z fikrini badiiy-estetik jihatdan o‘quvchi kutmagan ta’sirchan lavhalar va go‘zal tasvirlarga boy tarzda ifodalashi tufayli uning butun diqqat e’tiborini muayyan matn mazmuniga torta olishi hisoblanadi. Tilimiz bunday unsurlarga boy. Jumladan, ma’nodoshlik (sinonimiya), hodisalari yordamida matnda ifodalanayotgan mazmun eng nozik qirralarigacha ochib beriladi.

Sinonimlar (qadimgi yunoncha: σύν va ὄνομα – bir nomli) – bir umumiy ma’noga ega bo‘lgan (denotativ ma’nosi bir xil), qo‘shimcha (konnotativ) ma’nosi



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

(ekspressiv,) uslubiy va boshqa munosabat kabilarni ifodalovchi xususiyatlari bilan o‘zaro farqlanadigan til birliklari – so‘z, ibora, sintaktik birliklardir.

Har bir leksik ma‘noning o‘ziga xos xususiyatlari sifatida uslubiy semasi bilan farq qila olishi, sinonimik munosabatga kirisha olishini, yangi leksema har bir leksik ma‘nodan yasalişini ham ta‘kidlash lozim¹. Sinonimlar shaklan boshqa bo‘lsa-da, ma‘no jihatdan ayni bir tushuncha yoki tasavvurni ifodalab, birlashtiruvchi bir ma‘noni bildiradi². Xuddi shunday hodisalarni “Qo‘rqma” romani misolida ko‘rib chiqib, fikrlarimizni dalillaymiz.

Sinonim so‘zlar qatorida abadiy degan so‘z bo‘lib, asl kelib chiqishi arab tiliga borib taqaladi va grammatikada ravish so‘z turkumi sifatida tahlil qilinadi, uning ma‘nodoshi esa mangu, umrbod, toabad kabi so‘zlardir. Shu so‘zlar qatoridan mangu so‘zi mo‘g‘ulcha, qolganlari esa arab va fors tillarining qo‘shiluvidan hosil bo‘lgan. Ular orasidagi dominanta so‘z esa abadiy so‘zidir. Keltirilgan ma‘nodoshlardan “Qo‘rqma” romanida uch turi ishtirok etgan bo‘lib ular quyidagilardir: Nomus va orni baland tuting, o‘lim bir, nomussizlik esa abadiy dog‘dir. (“Qo‘rqma”, 291) Kel, musiqaga aylanamiz, tezroq, ertaroq, hoziroq... Siniq urayotgan yurak unimiz mangu o‘chib qolmasidan. (“Qo‘rqma”, 50) Nozik barmoqlaringiz sovishini his qilyapman, balki sovuq lablaringiz o‘pich ko‘rmas umrbod. (“Qo‘rqma”, 363).

Foydasiz, behuda, befoyda so‘zlari bir-birga ma‘nodosh bo‘lib turkumi jihatidan sifat so‘z turkumida ifodalanadi, gap mazmuni va joylashuvidan kelib chiqib boshqa so‘z turkumlariga ham ko‘chishi mumkin. Ikki sinonim so‘z ham arab va fors tillarining birikuvidan hosil bo‘lgan, ular orasidagi foydasiz so‘zi bosh so‘zdir: “Sartlar Ovro‘pada nima qiladilar?” degan istehzolar bilan matbuotda chiqasan, boshimizni bukmoqchi, sha‘nimizni to‘kmoqchi bo‘lasan, qichqirasan behuda. (“Qo‘rqma”, 99) Befoyda yurgandan ko‘ra, qabrda o‘ynagin shu telefonni, bolam, bexarajat! (“Qo‘rqma”, 169).

Afzal, ustun, yuqori, a‘lo kabi sinonim so‘zlar sifat so‘z turkumida ifodalanib, asosiy qismi o‘zbek tilidagi va afzal, a‘lo so‘zlari arab tilidan olingandir. Ular orasida afzal

¹ Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б. 100-101.

² Пинхасов Я. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лексикология ва Фразеология. Тошкент: Ўқитувчи, 1969. – Б. 22.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

eng ko‘p qo‘llaniladigan bosh so‘zdir. Romanda deyarli barcha ma‘nodoshlar birdek keng foydalaniladi: Men ona bo‘lmoqdan ko‘ra, shu millat uchun yuksak o‘qimoqni afzal ko‘rdim! (“Qo‘rqma”, 22) Vatan istagi bir o‘limdan ustunroqdir! (“Qo‘rqma”, 364) Minglab o‘zbek bolalari Moskva va boshqa sovet shaharlarida yuqori darajada ta‘lim olib turgan bir paytda, sizning bu yerda sarson o‘qishingizdan hech qanday manfaat ko‘rmayapman. (“Qo‘rqma”, 269) Kutganingizdan ham a‘lo, beg‘araz yordam ko‘rsatgan notanish odamga to‘satdan qanday javob qaytarishni bilmay qolasan kishi. (“Qo‘rqma”, 338).

Ahd, qaror, va‘da, lafz kabi arab tilidan o‘zlashgan so‘zlarning barchasi ot so‘z turkumiga mansubdir. Bosh so‘z sifatida nisbatan ahd so‘zi keng iste‘moldadir. Yozuvchi asarda yuqoridagi ma‘nodoshlarning barchasidan unumli foydalanadi: Biz ham bir kuni ular kabi to‘rga chiqamiz, kelin-kuyov bo‘lamiz deb ahd qilib qo‘yganmiz. (“Qo‘rqma”, 27) Shu yerning o‘zida toshkentlik gap-gashtakchilar har oy maoshlarining yigirma besh foizini chetda o‘qiyotgan talabalar maishatlari uchun ajratishga va‘da berdi. (“Qo‘rqma”, 112) Biz sizni otam deganmiz, xotiningizni enam deganmiz, biz lafzsiz bo‘lib, gapimizdan qaytaylikmi? (“Qo‘rqma”, 31) Balki, hozircha qaltis qaror qilmaganimiz ma‘quldir. (“Qo‘rqma”, 295).

Qadimgi, eski, burungi kabi so‘zlar tilshunoslikda ravish so‘z turkumi vazifasida keladi va o‘rni bilan boshqa so‘z turkumlariga ham ko‘chishi mumkin. Ular orasida qadimgi so‘zi dominanta so‘zdir. Asarda quyidagi turlaridan foydalanilgan: Undan ko‘ra sen eng qadimgi tarix bilan shug‘ullan... Senga shu tuzuk... (“Qo‘rqma”, 97) Eskirib chirigan, uch-to‘rt joyidan yamalgan joylari bo‘rtib yaraning o‘rni kabi qolgan quvurlar, tepadan suv tomib ko‘chgan ohak bo‘laklari, isliqisi chiqqan sholcha, hamon suv tutib turgan burungi chelak – bari ko‘z yoshi to‘kardi uch soatlik cho‘milishdan so‘ng. (“Qo‘rqma”, 101) Yo‘q! Eski o‘zbek yozuvidagi uringan maktub. (“Qo‘rqma”, 209).

Baxt, istiqbol, tole kabi ot so‘z turkumida qo‘llanuvchi arab tilidan o‘zlashgan so‘zlarning barchasi asarda ko‘plab uchraydi. Shuningdek, ular orasida dominantalik xususiyatiga ega bo‘lgan baxt so‘zi romanda kelajakka nisbatan umid va yorug‘ kunlarga nisbatan uchqun tarzida qo‘llanadi: Ko‘zyoshim, baxt va omadim ul tarafda qolib, yonib ketgan-u, bizga faqat meros qolgani mudroqlik, istalmagan tabassum! (“Qo‘rqma”, 8) Millat istiqboli uchun yoshlarni xorijda o‘qitmoq umid berardi hayotga, ertangi kunga. (“Qo‘rqma”, 370) Azaldan yo‘q edi



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

nasibam baxtdan, toledan, faqat bilardimki, tirik edim o'zgar qoni, joni va gardaniga ilingan la'natlar uchun. ("Qo'rqma", 6).

Foyda, naf, manfaat singari sinonimlar tilshunoslikda ot so'z turkumi vazifasida keladi va barchasi arab tilidan o'zlashgan hisoblanadi. Foyda so'zi o'zining ma'nodoshlariga nisbatan dominantadir. Asarda yuqoridagi tushunchalarning barchasidan me'yorida foydalaniladi: Olmoniyaning turli shaharlarida bo'lib, ularning yerdan qanday unumli foydalanish hayotganligini o'z ko'zim bilan ko'rib-o'rganib chiqdim. ("Qo'rqma", 166) Pul berib turishini aytmasa, hozir unga biron nafi tegmayotgandek. ("Qo'rqma", 202) Futbolchilarning loaqal birortasi uni tanimasligi, och muxlislikdan biror manfaat topmasligi aniq. ("Qo'rqma", 123).

Orzu, istak, havas, xohish singari o'zbek tilida ot so'z turkumi ichida keluvchi so'zlarning aksariyati o'zlashgan so'zlardir. Qo'llanish jihatidan istak so'zi bosh so'z bo'lib, asarda ham qolgan sinonimlar bilan bir qatorda keng foydalaniladi: Otonam boshida ko'nmagan, ammo bu istak meni qay holga solganini ko'rib: "O'zing hal qilsang boraver", – deb ro'yxushlik ko'rsatmoqda. ("Qo'rqma", 61) Har bir o'qituvchi – ixtirochi. Bolalarda ixtiro qilishga xohish zo'r. ("Qo'rqma", 113) Qarasam, bir suvsiz qolgan ariq ichida orzularim... sasib, tutab yonardi. ("Qo'rqma", 66) Yarim kechasi esa amakinga bo'lgan havasimni bosa olmadim. ("Qo'rqma", 286).

Qiziq, ajoyib, ajib g'alati, allambalo so'zlari asarda keng foydalaniladi va turkumiga ko'ra sifat so'z turkumida keladi. O'zbek tiliga yuqoridagi so'zlashgan arab va forstojik tillaridan kirib kelgan, ular orasida qiziq so'zi bosh so'zdir: Ancha yillar oldin, qiziq bir hodisa bo'lgan. ("Qo'rqma", 260) Buning uchun uchta g'alati xonadoshlarim bilan qo'shib ichmadim, yemadim, internetda o'tirmadim, men tarixni tingladim, tarixni titdim, o'zimni so'kdim. ("Qo'rqma", 57) Ajoyib, men biron marta motam marosimiga qatnashmaganman. ("Qo'rqma", 298) Ular qabrimga yillar o'tib, bahor ustimni ajib chuchmomalar-u qizg'alqoqlar bilan bezaganida, balki yo'qlab tushlariga kirsamgina hur bo'lib, kelishar qabrdan ko'karmagan sof gullar isini yetaklab. ("Qo'rqma", 22) Keling, sizdan bir narsa so'ray, hozir allambalo fandan professorsiz, to'g'rimi, ha, darvoqe, bundan tashqari, rektorsiz! ("Qo'rqma", 272).

Rost, to'g'ri, chin, haqqoniy singari sifat so'z turkumidagi so'zlar asosan o'zlashgan so'zlar va ular orasida rost so'zi dominanta so'z hisoblanadi: U oppoq, uzun qoshlarini osiltirib, rost yo yolg'on gapirganimni bilmoqchi bo'lar, ammo hech



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

qachon meni fosh qilmasdi. (“Qo‘rqma”, 29) To‘g‘ri so‘zni aytmaslik, bo‘yin egish axloqqa aylandi va hamon bu illatlarni xalqimiz boshidan tozalay olmay halakmiz. (“Qo‘rqma”, 332) Vaqtida o‘qimasangiz, qabul bo‘lmaydi. Menga chin gapni so‘ylang, bobo. (“Qo‘rqma”, 34) Maqolalarda kuchli hayajon sezilib tursa-da, Germaniyada tahsil olgan talabalar haqida haqqoniy ma’lumotlar olish imkonini beradi. (“Qo‘rqma”, 182).

Hayo, or, uyat, nomus singari so‘zlar o‘zbek tilida ot so‘z turkumi tarkibiga kiruvchi so‘zlardir. Ular orasida hayo, or, nomus so‘zlari arab tilidan o‘zlashgan. Asarda yuqoridagilarning barchasi faol qo‘llanadi: Mushuk o‘lganday, g‘urur achib, nomus qurtlay boshladi, qora qishlarda or va hayo gabsiz va o‘tinsiz qolgan temir pechkalarda yoqildi, yondi, kuydi iymon! (“Qo‘rqma”, 42) Anavi yerda yettita bekorchi, bo‘linglar, lekin ular qurbonlikka ham yaramaydi, yovuz kuchlaring ularni qabul qilishni o‘ziga or bilsa kerak! (“Qo‘rqma”, 249) Har holda soyasi qalin, keyin pashshalar hamdard bo‘ladi. Ularda ham hayo yo‘q, pashshalarni aytayapman, suvchim! (“Qo‘rqma”, 253) Hayosizlik yoshlik emas, uyat yil tanlamaydi. Yoshlik pastlik emas, ulug‘lik, tiniqlik, pokizalidir. (“Qo‘rqma”, 254)

Yozuvchi Javlon Jovliyevning “Qo‘rqma” romanidan yuqorida bir qancha sinonim so‘zlarga misollar keltirib ayon bo‘ldiki, ijodkor ma’nodosh so‘zlardan unumli va keng foydalangan. Qolaversa, asarida muallif o‘zbek tilining boy imkoniyatlaridan samarali foydalangan. Jumladan, so‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari mazkur asar matnida ko‘zda tutilgan mazmuni yoritib berishda eng muhim lisoniy vositalardan biri sifatida namoyon bo‘lgan.

ADABIYOTLAR:

1. Ўзбек тили лексикологияси. Коллектив тўплам. Т.: Фан, 1981.
2. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Олий ўқув юртлари учун дарслик. – Тошкент.: 1980.
3. Ш. Раҳматуллаев. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. Т.: Ўқитувчи нашриёти, 1974.
4. Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент.: Ўзбекистон, 1992. – Б. 100-101.
5. Пинхасов Я. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лексикология ва Фразеология. Тошкент.: Ўқитувчи, 1969. – Б. 22.
6. М.М.Миртожиев. Ўзбек тили семасиологияси. Тошкент.: Mumtoz so‘z, 2010.

